

***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***  
**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQ**  
**MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

***Abdurahmonova Mehrangiz Bahriiddin qizi***

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

***Zikiryayeva Muhabbat Odina qizi***

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim yo'nalishi 2-bosqich talabas*

***Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi***

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Filologiya fakulteti Œzbek tili va adabiyoti kafedrasи õqituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada asosan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirish, bundan tashqari esa nutqiy madaniyatni oshirishning bir necha xil usullari, o'qishni o'rgatish, chiroyli yozish, savodli o'qish, to'g'ri talaffuz, to'g'ri fikrlash haqida ma'lumotlar berilgan.

**Аннотация.** В данной статье в основном представлены сведения о развитии речевой культуры учащихся начальных классов, а также о нескольких различных способах повышения культуры речи, обучении чтению, красивому письму, хорошему чтению, правильному произношению и правильному мышлению.

**Abstract.** This article mainly provides information on the development of students' speech culture in primary grades, as well as several different ways of improving speech culture, teaching reading, writing beautifully, reading well, correct pronunciation, and correct thinking.

**Kalit sõzlar:** nutq, nutqiy madaniyat, nutqiy usullari, og'zaki nutq, yozma nutq.

**Ключевые слова:** речь, культура речи, приемы речи, устная речь, письменная речь.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Key words:** speech, speech culture, speech methods, oral speech, written speech.

**Kirish.** Boshlanğich sinf ona tili darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘quv folyatiga tayyorlanish, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o‘z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

O‘quvchilar nutqini rivojlantirish yo‘lari, metodikasi, nutqni egallashning qator aspektlari nutq o‘stirish yo‘nalishlari , o‘quvchilar nutqini o‘stirshda aniq belgilangan talabalar tálim -tarbiya jarayonida nutq o‘stirishga erishish orqali o‘quvchilarda shakllantirish lozim bo‘lgan .Nutq deganda so’zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Aslida – chi, nutq – bu insonning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Odamning ijtimoiy mehnat jarayonida kishilar o’rtasida o’zaro fikr almashinuv vositasi sifatida vujudga kelgan spetsifik funksiyasi. Inson tashqi olamdagи predmetlar va hodisalarni sezgi organlari yordamida va nut vositasida idrok etadi. So’z signalizatsiyasi, ya’ni nutq tufayli odam borliqni umuman, fikran idrok etishi mumkin. Nutq organlari, odam organizmining nutq tovushlari hosil bo’lishida qatnashadigan turli qismlari. Aktiv nutq organlariga til, lab, yumshoq tanglay, passiv nutq organlariga esa tishlar, qattiq tanglay, burun bo’shlig’i kiradi.Nutqning tashqi va ichki, og’zaki va yozma turlari bor. Tashqi nutq asosan aloqa bog’lash maqsadlariga xizmat qiladi, shuning uchun u tinglovchilarga tushunarli qilib tuziladi. So’zlanmaydigan va yozmaydigan ichki nutq, ya’ni o’zi uchun bo‘lgan nutq ong? O’zini bilish, tafakkur jarayonlarida g’oyat muhim ro’l o’ynaydi. Yozma nutq (xat yozish va o’qish) funksional jihatdan ichki nutq (yozilajak narsani ichida inchirlash, tovush chiqarmasdan o’qish) bilan chambarchas bog’liqdir.

O‘quvchilarning og’zaki va yozma nutqlarini me’yorlashda, ularning mutanosibligini ta’minlashda, milliy tilning tabiatini va o’ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya’ni

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

qiroat bilan o'qishning amaliy ahamiyatini o'stirish, adabiy til me'yori va mezonlariga rioya qilish, o'qish, o'qish metodlarini takomillashhtirish yo'llarini izlash va eng qulaylarini amaliyatga tatbiq qilish zarur.

Adabiy til tushunchasi keng qamrovli, ko'p qirrali hodisadir. Adabiy til taraqqiyoti barqarorligini ta'minlashda bolalarning yoshlikdan nutq madaniyatlarini tarkib toptirish va tarbiyalash lozim.Til qonunlarning ta'limga tatbiqi munosabati bilan bolalarni o'qishga o'rgatishdagi usullarni to'g'ri qo'llashi (ko'rgazmalilik, tarqatib berilgan topshiriqli qog'ozlar bilan ishslash yo'llarini biliш) usullari takomillashtiriladi.O'quvchilarning bilish faoliyatlarining o'ziga xos taraqqiy etishini hisobga olish, ayniqsa, ularning ruhiy, fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lган ishlarga yetarli ahamiyat qilish lozim. Nutq ichki va tashqi ko'rinishiga ega. Ichki nutq odamning o'z ichiga gapiradigan passiv nutqi bo'lib, u ikinchi kishining ishtirokini talab qilmaydi. Shuning uchun bu nutq o'z – o'ziga qaratilgan sanaladi, uni nazorat qilib bo'lmaydi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqlarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo'lган faol nutq bo'lib, u og'zaki va yozma ko'rinishiga ega.Yozma nutqning og'izaki nutqdan yana bir farqi shuki, yozma nutqni ko'ramiz va o'qiymiz.

Muloqot madaniyatining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, kishilar o'rtasidagi tinchlik va osoyishtalikning eng muhim tamal toshi ekanligi avvaldan ma'lum. Zero, barcha ma'naviy axloqiy fazilatlarning poydevori, tushunchalari, ko'nikmalri bolalikdan tarkib toptirilsagina, bu poydevor barqaror bo'ladi. Ma'naviy axloqiy fazilatlar tarkibida nutq, muloqot, munosabat madaniyati alohida o'rinn tutadi. O'quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda pedagogikaning roli kattadir. Bu o'qituvchining erkin va aniq – ravshan nutqi, o'quvhilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi.Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini individual shakllantirih metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

**1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq rivojining tarbiyasi individual uslubining haqiqiy shaxsiy xususiyatlarini o'rganish va o'quvchilar nutqining ravonligini**

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

rivojlantirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqning o'sishini mustaqil tahlil qilish, o'zaro har tomonlama tavsifnomalar, o'qituvchining kuzatishlari asosida amalga oshadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida nutq muomalasi haqida, "Men boshqa kishilar bilan muomalada qandayman?" mavzusida suhbat o'tkazish.

**2.** Nutqiy muomaladagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham toptirish yuzasidan qilingan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muomala uslubidagi salbiy holatlarni yengish.

**3.** Nutqda pedagog uchun muomalaning hissiy juhatdan qulay bo'lgan uslubini ishlab chiqishga doir topshiriqlar va ularni o'z-o'zini kuzatish ma'lumotlari bilan taqqoslash.

**4.** Nutqiy muomalada o'z individual uslubiy pedagogik muomalaning tarkibiy qismlarini egallash sohasidagi ishlar. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda, o'quvchilar nutqining o'stirilishida pedagogik muomalaning juhatlari muhim rol o'yndaydi. Bu o'rinda, bir nechta bosqichlar ajratib ko'rsatiladi.

**Xulosa.** O'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirishda kitoblardan , interfaol metodlardan foydalanish katta samara beradi.Muloqot madaniyatining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, kishilar o'rtasidagi tinchlik va osoyishtalikning eng muhim tamal toshi ekanligi avvaldan ma'lumdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Karima Qosimova Safo Matchonov, Xolida Čulomova Sharofat Yo'ldosheva, Sharifjon Sariyev Ona tili o'qitish metodikasi darslik.T.2016
- 2.** 2020 Jumayeva Zulkumor Fayzullayevna Buxoro. Viloyati Kogon shahri.
- 3.** 2022 Mavjuda Ochilovna Eanova.
- 4.** 2021 Zilolaxon Abdulkodim.
- 5.** Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. Toshkent sh., 2017-yil 6 aprel 187-soni.
- 6.** Nizomiy nomidagi toshkent davlat pedagogika universiteti Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi darslik.